

## KICHIK MAKTAB YOSHIDA BOLALAR RUHIYATINING SHAKLLANISHI

*Jumayeva Jamila Rustamovna.*

*Qashqadaryo viloyati Koson tumani*

*MMTBga qarashli 99-maktabi psixologi*

### ANNOTATSIYA

Mazkur mavzuda kichik maktab yoshidagi bolalar ruhiyatining shakllanish jarayoni, psixologik xususiyatlari hamda bu davrda ta'lim va tarbiyaning o'rni yoritiladi. Shuningdek, emotsional, ijtimoiy va aqliy rivojlanishning asosiy omillari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** kichik maktab yoshi, ruhiyat, psixologik rivojlanish, emotsiya, shaxs shakllanishi, o'qish faoliyati.

### KIRISH

Kichik maktab yoshi bolaning psixik rivojlanishida muhim bosqich bo'lib, bu davrda uning ruhiyati jadal shakllanadi. Bola maktabga qadam qo'yishi bilan yangi ijtimoiy rol — o'quvchi rolini egallaydi va bu holat uning ichki dunyosiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ruhiyatning shakllanishi jarayonida idrok, diqqat, xotira, tafakkur va nutq kabi bilish jarayonlari bilan birga emotsional va ijtimoiy rivojlanish ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Bu yoshda bolalarda hissiyotlar juda beqaror bo'lib, ular tez quvonish, tez xafa bo'lish kabi holatlarni boshdan kechiradi. O'qituvchi va ota-onaning munosabati bolaning emotsional holatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ijobiy rag'bat va qo'llab-quvvatlash bolaning o'ziga ishonchini oshiradi, aksincha salbiy munosabat uning ruhiyatiga salbiy ta'sir qiladi.

Shuningdek, kichik maktab yoshida bola ijtimoiy muhitga moslashishni boshlaydi. U sinf jamoasida o'z o'rnini topishga harakat qiladi, tengdoshlari bilan munosabatlar o'rnatadi va jamoada yashash ko'nikmalarini egallaydi. Bu jarayon uning shaxs sifatida shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Aqliy rivojlanish ham ruhiyat shakllanishi bilan chambarchas bog'liq. Bolalarda mantiqiy fikrlash, tahlil qilish va umumlashtirish ko'nikmalari asta-sekin rivojlanadi. O'qituvchining to'g'ri yondashuvi va qiziqarli dars jarayoni bu rivojlanishni tezlashtiradi.

To'g'ri tashkil etilgan ta'lim va tarbiya jarayoni sog'lom psixologik rivojlanishga xizmat qiladi. Kichik maktab yoshi davri 1-4 sinf (6-7 yoshdan 10-11 yoshgacha) o'quvchilarining yosh oralig'ini o'z ichiga oladi. Bu davrda bola psixikasida muayyan o'zgarishlar sodir bo'lishini kuzatish mumkin. Bolani birinchi

bor maktab ostonasiga qadam qo'yishi bilan unda bir qator psixologik qiyinchiliklar yuzaga kela boshlaydi. Kichik maktab davrida bolaning birinchi bor maktab ostonasiga qadam qo'yishi unda o'quv faoliyatining boshlanishi hisoblanadi. Bu davrni bola uchun qiziqarli, ta'sirchan o'tkazish talab etiladi. O'quv faoliyati bolaning bilish jarayonlarining ixtiyoriy va barqaror xususiyatlarini, aql sifatlari va fikr yuritish jarayonlarining rivojlanishida psixologik qiyinchiliklarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning bilim jarayonlari va ularning faoliyatida bir qator o'zgarishlarni kuzatish mumkin. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar diqqatining asosiy xususiyati sifatida uning ixtiyoriy zaifligini keltirish mumkin.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning eng muhim xususiyatlaridan biri bu uning o'z ehtiyojlariga ega ekanligidir. Bu ehtiyojlarga esa, bolaning o'z portfeli, o'quv qurollari, kitob javoni, dars stoli va shu kabi buyumlarining mavjudligi uning kattalar singari maktabga borishga qiziqishini, istagini oshiradi. Inson borki, u hayoti davomida o'zini turli ehtiyojlarga moyilligini his etadi. Ushbu ehtiyojlarning mavjudligi ham bola shaxsining rivojlanayotganidan dalolat. Maktabning birinchi sinfiga kelgan bolada hayol yetarli darajada rivoj topgan bo'ladi va u xilma-xil tasavvurlarning kattagina zaxirasiga ega bo'ladi. O'qish jarayonida u faqat idrok va xotira tasavvurlariga tayanib qolmasdan, balki shu bilan birga hayolida yaratilgan tasavvurlarga ham tayanib, o'rgatilayotgan materialni yaqqol tarzda o'zlashtirib boradi. Bolaning hayoli tevarak atrof taassurotlari, tasviriy san'at asarlarini yetarli darajada aks ettirishda vujudga keladi. Siymolar, shartli belgilar, tabiat manzaralari jamlanib, o'quvchilarda hayol paydo bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'ynaydigan o'yinlarda ham ularning hayolini o'sishi davom etaveradi.

O'quvchilar o'z o'yinlarida turli narsalarni yasaydilar, turli yerlarga sayohat qiladilar. Bunday o'yinlardan o'quvchi mazmundor taassurotlar oladi va unda turli tasavvurlar hosil bo'ladi, uning ijodiy, qurish-yasash va badiiy qobiliyatlari o'sadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchining xayoli o'zining kengligi va mazmundorligi jihatidagina o'zgarib qolmasdan, balki yo'nalishi jihatidan ham o'zgaradi. Kichik maktab davridagi o'quvchining ixtiyorsiz hayoli ham, ixtiyoriy hayoli ham maktabgacha yoshdagi bolalarning hayolidan o'zining barqarorligi bilan farq qiladi. Birinchi bor maktabga kelgan bola hali o'zini anglashi va o'z hatti-harakatlarini aniq bilishi qiyin. Faqat o'qituvchigina bolaga me'yorlar qo'yishi, ularning xatti-harakatlarini baholashi, o'z xatti-harakatlarini boshqalar bilan moslashtirishga sharoit yaratishi mumkin. Boshlang'ich sinfda o'quvchilar o'qituvchi tomonidan qo'yiladigan yangi talablar va shartlarni qabul qiladilar, shuningdek, ularning qoidalariga to'la amal qilishga harakat qiladilar. O'quvchilarning o'z xatti-harakatlarini o'qituvchi qo'ygan maqsad va vazifalarga moslashtirishi sinfdan-sinfga ko'tarilgan sari kuchayib boradi.

Bu o'quvchining maktab qoidalariga amal qilishida, sinfdagi vazifalarini bajarishida ko'rinadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari, hatto mazmuni tushinarli bo'lgan materialni ham ma'nosiga e'tibor bermasdan, mexanik ravishda o'rganib oladilar. E.G'.G'oziyevning fikriga ko'ra, buning sabablari quyidagilar:

- Ularning mexanik xotirasi boshqa xotira turlariga qaraganda yaxshiroq rivojlangani uchun ham ma'lumotlarni aynan, o'zgarishsiz eslab qolish imkonini beradi.

- O'quvchilar o'qituvchi qo'ygan vazifani anglab yetmaydilar, natijada uning "to'g'ri tushuntirib ber" degan talabini so'zma so'z takrorlash deb biladilar.

- Ularning nutq boyligini yetishmasligi (ilmiy atamalar, til qonuniyatlarini bilmasligi) materialni ijodiy to'ldirish, unga qo'shimcha qilish imkoniyati yo'qligi uni so'zma so'z qaytarishni osonlashtiradi.

- O'quvchilar matnni to'g'ri usullar bilan eslab qolishni bilmaydilar.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning his-tuyg'ulari ularning faoliyatida namoyon bo'ladi va rivojlanadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar o'zlarining xar-bir faoliyat natijalariga baho bera oladilar. Baho kishida qoniqish va qoniqmaslik hislarini yuzaga keltirish mumkin bo'lib, bu hislar bolani yaxshi o'qishga ruhlantiradi. Ba'zan past baxo olish orqali yuzaga kelgan salbiy hislar chuqurlashib, o'qituvchining noto'g'ri reaksiyasi va kattalarning doimiy tanbeh va tanqidlari oqibatida bolaning xarakter hislatiga aylanib qolishi mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining faoliyatlari uchun ijobiy baho olishlariga yordam beruvchi asosiy hislardan biri intellektual hislardir. Odanning aqliy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan hislar intellektual hislar deb ataladi. Bilishga qiziqish, taajjublanish va hayron qolish hislari, ishonch, ishonchsizlik va shubhalanish hislari intellektual hislar qatoriga kiradi. Kichik maktab yoshidagi bolalarda ixtiyorsiz diqqat yuqori turadi. Lekin maktabda o'qishning birinchi yiliyoq o'quvchilarda ixtiyoriy diqqatning vujudga kela boshlashiga kuchli tasir ko'rsatadi.

Shunday qilib, kichik maktab yoshi davrida o'qish yetakchi faoliyatga aylanadi, o'qituvchining so'zi bola uchun senzitiv hisoblanadi. Intellektual refleksiya bu davrda paydo bo'lgan yangi psixologik tuzilmadir.

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, kichik maktab yoshidagi bolalar ruhiyatining shakllanishi murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, unda oila, maktab va ijtimoiy muhitning o'zaro ta'siri muhim ahamiyatga ega. Xulq-atvor normalari o'zining ichki talabiga aylanadi va unda uyalish hissi shakllangan bo'ladi. Lekin shunga qaramay kichik maktab yoshidagi bolalar uchun ahloqiy jihatdan barqaror emaslik, munosabat va kechinmalarning doimiy emasligi, o'ziga xos xususiyatlaridan xisoblanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Z.T.Nishonova, N.G'. Kamilova, D.U. Abdullayeva, M.X.Xolnazarova “Rivojlanish Psixologiyasi pedagogik psixologiya” Toshkent-2019
2. SH.A.Do'stmuhammedova, Z.T.Nishonova, S.X.Jalilova,SH.K.Karimova, SH.T.Alimbaeva “Yosh davrlar va pedagogik psixologiya” Toshkent-2013
3. M.X.Xolnazarovna, M.Q.Muhliboyev “Yosh va pedagogik psixologiya” Toshkent-2014.
4. Ziyo.net

